



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi

Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish28

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

G.A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi falsafa doktori (PhD)

Turayeva Gulnoz Ergashevna

E-mail: gulnoz_turaeva@tues.uz

TEKNOLOGIYALASHGAN JAMIYATDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH

ANNOTATSIYA.

Maqolada o‘quvchi-talabalarni zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorash komponentlari to‘g‘risida fikr-mulohaza yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: ta‘lim, tarbiya, jarayon, fikrlash, tizim, ko‘nikma, malaka, amaliyot, daraja, vaziyat, qobiliyat, kompetensiya, texnologiya, metodika, axborot texnologiyasi, ijodiy.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ТЕХНОЛОГИЗИРОВАННОМ ОБЩЕСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются составляющие подготовки студентов как высококвалифицированных, конкурентоспособных кадров, отвечающих требованиям времени. Ключевые слова: образование, обучение, процесс, мышление, система, навык, компетенция, практика, уровень, ситуация, способность, компетенция, технология, методика, информационная технология, креатив.

THE IMPORTANCE OF THE 4K MODEL IN TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS

ABSTRACT

The article discusses the components of preparing students as highly qualified, competitive personnel that meet the requirements of the time.

Key words: education, training, process, thinking, system, skill, competence, practice, level, situation, ability, competence, technology, methodology, information technology, creativity.


KIRISH

Bugungi kunda oliy ta‘lim sohalarida pedagogik fanlarni o‘qitish, ta‘lim-tarbiya, o‘zlashtirilgan pedagogik bilimlar darajasini zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanagan holda tashkil qilish, baholash, pedagogik fanlar bo‘yicha yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish muhim muammolardan hisoblanadi. Shu o‘rinda aytish joizki, sog‘lom tarbiya tizimini ishlab chiqishda uzluksizlik, uzviylik, yaxlitlik va bog‘liqlikni ta‘minlovchi “bosqichli ta‘lim” konsepsiyasi tavsiya etildi. Konsepsiya negizida bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom tarbiyalashdan to‘g‘ri sog‘lom madaniyatlilik darajasigacha bo‘lgan jarayon qamrab olinadi. Bu jarayon tarbiyalanuvchilarga sog‘lom tarbiyalashga tayyorgarlik, sog‘lom tafakkur, fikrga egalik, sog‘lom ong va madaniyatlilik kabi sifatlarni shakllantirishni talab qiladi.

Endilikda ta‘lim-tarbiya maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmun ham, pedagogik jarayon ham yangilanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti,

auditoriyada o‘qitish imkoniyatlari katta bo‘lgan yangi texnologiyalar (sanoat, elektron, axborot) kirib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda erkin bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsini shakllantirish muammosi OTMda o‘quv-tarbiyaviy ishlarda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishni taqozo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi, chunki ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o‘qitish tizimini qat‘iyan ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. V.P. Bepalkoning ta‘rifiga ko‘ra, “pedagogik tizim - ma‘lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko‘zlab va oldindan o‘ylab pedagogik ta‘sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq vosita, metod va jarayonlar yig‘indisi” [1]. Ro‘y berayotgan sifati o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, bugungi kunda “O‘rganish” ning birlamchi jarayonlarini an’anaviy metodika va o‘qitish vositalari qolipga sig‘may o‘qituvchining individual qobiliyatlariga mos



kelmay qoldi. Yangi metodikani talab etadigan va ta'lim-tarbiyaviy jarayonning tarkibiy komponentlariga aylanib borayotgan va uni o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizual vositalar mavjudki, ular zamonaviy pedagogik texnologiyani real voqelikka aylantirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab obyektiv voqelikka aylandi. Axborotlashtirish esa bu jarayondagi inqilobiy "burilish", ya'ni ta'lim-tarbiya axborot texnologiyalari – bu "Bo'lajak o'qituvchi - kompyuter" o'rtasidagi muloqot.

OTMlarida bo'lajak o'qituvchining ilmiy-texnikaviy va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirish – har qanday tur, bosqich yoki darajadagi ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri. Zotan, bugungi kun bo'lajak o'qituvchilari texnika va texnologiya, pedagogika asoslari borasidagi bilimlardan xabardor bo'lsa-yu, biroq ulardan foydalanish bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga ega bo'lmasa, u ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi. O'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni amaliyotda qo'llash yo'llari va vositalarini bilishgina ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, texnika, mehnat qurollari va axborot texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanish imkonini beradi [1].

Keng ko'lamlil va mustahkam bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik kabi muammolarni mustaqil hal etishda aniq maqsadga intilish va shaxsiy faoliyatga nisbatan talabchanlik talabalar ijodkorlik qobiliyatlari shakllanishining zamini.

Tahlil va natijalar. Bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning muhim sharti – bu faoliyat. Demak, pedagogning asosiy vazifasi ushbu faoliyatni tashkil etish shakl, metod, vosita va yo'llarini belgilab beruvchi zarur axborotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Axborot ta'minotining haddan ziyodligi vazifani ijobiy hal etmaydi. Shu bois axborot ta'minotini pedagogik jihatdan boshqarish, ularning ilg'or texnika va texnologiya yutuqlari bilan boyitilganligini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Maqsadli pedagogik boshqarish o'z mazmuniga ko'ra, vaqt omili va sharoitiga qarab bir nechta guruhga bo'linadi. Yo'nalish mazmuni esa, shartli ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy,

g'oyaviy va ilmiy-texnikaviy maqsadlar sifatida guruhlanadi.

Ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatga tayyorlashning muhim sharti maqsadli pedagogik boshqarishda qatnashuvchi bo'lajak o'qituvchilar shaxsini yuqori darajadagi obyektiv axborotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Obyektiv axborotgina maqsadga yo'naltirilgan faoliyat uchun harakatlantiruvchi vosita bo'la oladi.

Bo'lajak o'qituvchining miyasi turli xil axborotlarni turli darajada qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lib, bu ma'lumotlarni yengil, erkin va qiziqarli uzatishni talab etadi. Axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida yuqori samaraga erishish didaktika muammosi hisoblanib, asosan, ko'rsatmalilik tamoyilini ta'minlash borasidagi faol harakat metod deb baholanadi [4].

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ko'rsatmalilik zaruriyati bilish jarayoni tavsifi, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, undan keyin esa amaliyotga o'tishi bilan bog'liq. Pedagoglar va psixologlarning ta'kidlashicha, sezgi va tasavvur qilishdan tashqarida fikrlar harakatlanmaydi. Shuningdek, o'qitish jarayonida olg'a siljish bo'lmaydi [1]. Demak, ko'rsatmalilik faqat ongga ta'sir etish bilan chegaralanmasdan o'rganuvchidan ma'lum his-hayajonli motivni yuzaga chiqaradi, his etish va mantiqiy fikrlash birligi asosidagina egallangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar mustahkamlanadi.

Bugungi kunda ta'limni rivojlantirishning yangi pog'onasida o'qitishni axborot texnologiyalari vositalarisiz ko'tarib bo'lmaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning muhim ko'rsatkichlaridan biri – axborotlarni bo'lajak o'qituvchilarga uzatish tezligi aynan shu vositalar yordamida ta'minlanadi

Ushbu ma'lumotlar fan asoslarining axborot ta'minoti mazmuni va ijodkorlik metodlarini boshqarish imkoniyatlarini belgilaydi. Bo'lajak o'qituvchini ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayoni samarasi ko'p jihatdan uning axborot ta'minotiga ega bo'lishini va pedagogik jihatdan boshqarish yo'nalishlarining tizimli, uzluksiz va uzviy bo'lishini taqozo etadi.

Ma'rifatli va madaniyatli dunyoviy ta'lim-tarbiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, shuningdek, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi shakllanishida u mansub bo'lgan muhit hamda

unda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati katta bo'ladi[3].

Shunday qilib, fanning rivojlanishi bilan texnika taraqqiyoti bir-birini taqozo etib, ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini axborotlar bilan ta'minlash muayyan darajada boshqarish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Ammo o'quv mashg'ulotlarini ta'lim metodlari bilan boyitish ta'lim-tarbiya tizimi va mantig'ini buzmasligi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiya bo'lajak o'qituvchida ijodiy qobiliyatni shakllantirishga imkon beruvchi axborotlar yig'ish hamda ulardan mashg'ulot jarayonida foydalanish yo'lida ma'lum imkoniyatlarni yaratadi.

Zero, shaxs mansub bo'lgan muhitda uning tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyektiv omillar mavjud. Shaxs faoliyat olib borayotgan muhit doirasida OTMlarining alohida o'rni bor.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy qudratining oshib borishi jamiyatimiz ijtimoiy sohasining markaziy xalqasi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlarga olib keldi. Bo'lajak o'qituvchilar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularga berilayotgan ta'lim-tarbiya mazmunini kengaytirish, chuqurlashtirish va boyitish hamda ta'lim uzluksizligi va uzviyligini ta'minlab berish uchun yangi qonun va hujjatlar qabul qilinmoqda, zamonaviy pedagogik texnologiya yaratilmoqda[1]. Zamonaviy pedagogik texnologiya fani asoslari bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Xulosa va takliflar. Yangicha yondashuv, yangicha fikrlash asosida o'qitish-tarbiyalash jarayonida bilim oluvchilar o'quv-bilish faoliyatining samarali shakl va metodlarini joriy etish, ularning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish kerak. O'quv-tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar garovi. Barcha turdagi mashg'ulotlar va mustaqil topshiriqlar talabalarni o'ylashga, ijodiy mehnat qilishga, har tomonlama fikr yuritishga, berilgan topshiriqlarni o'z hayotiy tajribalariga asoslanib hal etishga o'rgatadi. Mashhur ingliz adibi J. Bernard Shou topib aytganidek, "Bilimga eltuvchi yagona yo'l – bu faoliyat" [2]. Ana shunday faoliyatning bo'lajak o'qituvchilar va o'qituvchi mehnati ko'rinishidagi turlari

omixtalashganida kutilganidan ziyodroq natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qosimov A.S, Nazirov J.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish muammolari / Интернаука. 18-5 (194). 2021. Стр. 49-51.
2. Omonov H.T., Xattabov M.B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma /; – T.: «IqtisodMoliya», 2016, – 85 b.
3. Анисимов П. Г. Воспитание эмоционально-волевой культуры будущего специалиста в условиях высшего профессионального образования/ дисс. пед. наук. 2015. Стр.-65.
1. Turaeva, G. E. (2022, February). Some aspects of educating students to become highly qualified and competitive personnel. In Conference Zone (pp. 163-165).
2. Turaeva, G. E. (2021). Improving the efficiency of the educational process using computer technology. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 407-410.
3. Turaeva, G. E. (2021). The effectiveness of the use of computer technology in the educational process. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(8), 90-93.
4. Тураева, Г. Э., & Бадалов, Д. А. (2019). Инновационный подход к обучению геометрическим фигурам ученикам начальных классов. Научные горизонты, (5-1), 320-323.
5. Исмоилов, Б. Т., Бадалов, Д. А., & Тураева, Г. Э. (2019). Постановка и решение задачи: найти площадь четырехугольника по четырём сторонам. Научные горизонты, (5-2), 43-47.